



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 8 602 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 152 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 450 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi

1 610,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 108,0 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 160,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 449,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 143,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 131,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 610,0	108,0
shaharlar		
<i>Farg'ona</i>	323,0	109,8
Qo'qon	228,3	109,0
Quvasoy	25,7	108,5
Marg'ilon	193,9	108,3
tumanlar		
Oltiariq	86,2	108,1
Qo'shtepa	29,9	106,1
Bag'dod	41,4	106,4
Buvayda	74,1	107,0
Beshariq	77,6	108,8
Quva	86,0	107,4
Uchko'prik	168,8	107,2
Rishton	42,8	107,9
So'x	41,6	104,3
Toshloq	50,2	107,7
O'zbekiston	23,6	107,9
Farg'ona	45,9	104,5
Dang'ara	26,6	108,0
Furqat	20,9	104,7
Yozyovon	23,5	104,8


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Farg'ona sh.(**109,8 %**), Qo'qon sh.(**109,0 %**) va Beshariq tumanida (**108,8 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,0 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil, 2024-yil yanvar oyi)



2024- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil qildi.



Hajmi, mlrd. so'm

Farg'ona sh.	323,0
Qo'qon sh.	228,3
Marg'ilon sh.	193,9
Uchko'prik	168,8
Oltiariq	86,2
Quva	86,0
Beshariq	77,6
Buvayda	74,1
Toshloq	50,2
Farg'ona	45,9
Rishton.	42,8
So'x	41,6
Bag'dod	41,4
Qo'shtepa	29,9
Dang'ara	26,6
Quvasoy sh.	25,7
O'zbekiston	23,6
Yozyovon	23,5
Furqat	20,9

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 20,1 % bilan 323,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,3 % bilan 20,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi


2024-yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,

1 449,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,0 %ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 5,6 % ga kamaydi va 160,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,1 %), Toshloq t (98,5 %) va Quvasoy (98,3 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik tumani (28,3 %), Farg'ona (15,9 %), shahrida kuzatildi.

10,0 %

90,0 %




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 400,6 ming so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (1 015,3 ming. so'm), Marg'ilon (779,2 ming. so'm) va Qo'qon (745,2 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	143,8	131,8
shaharlar		
Farg'ona	18,8	380,5
Qo'qon	18,4	191,8
Quvasoy	3,4	104,6
Marg'ilon	11,8	67,0
tumanlar		
Oltiariq	4,7	166,7
Qo'shtepa	4,1	119,9
Bag'dod	5,8	149,3
Buvayda	15,9	117,8
Beshariq	20,0	158,1
Quva	12,6	134,8
Uchko'prik	3,1	86,9
Rishton	9,0	153,9
So'x	3,2	275,9
Toshloq	2,8	111,1
O'zbekiston	2,9	93,6
Farg'ona	1,5	40,4
Dang'ara	1,4	364,6
Furqat	0,1	20,3
Yozyovon	4,5	60,2


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar)**














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 143,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 131,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari a'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 72,2 mlrd. so'mni (137,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 71,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (126,4 %).













2024-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 72,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (26,7 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>26,7 mlrd. so'm</p>  <p>36,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>7,4 mlrd. so'm</p>  <p>10,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>11,5 mlrd. so'm</p>  <p>16,0 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,1 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>5,1 mlrd. so'm</p>  <p>7,0 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>4,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>1,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,6 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>3,7 mlrd. so'm</p> <p>5,4 %</p>

2024- yilning yanvar oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 71,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 54,9 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 15,5 mlrd. so'mni, otlar – 0,8 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>31,3 mlrd. so'm</p>  <p>43,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>13,2 mlrd. so'm</p>  <p>18,4 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>10,5 mlrd. so'm</p>  <p>14,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>15,2 mlrd. so'm</p>  <p>21,2 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,01 mlrd. so'm</p>  <p>0,01 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,01 mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 070 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 067 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	46,4	106,6
shaharlar		
Farg'ona	15,4	108,1
Qo'qon	3,9	118,1
Quvasoy	0,7	96,3
Marg'ilon	7,1	119,5
tumanlar		
Oltiariq	1,7	104,1
Qo'shtepa	2,2	94,3
Bag'dod	0,8	106,0
Buvayda	0,7	104,7
Beshariq	1,3	106,3
Quva	1,6	106,9
Uchko'prik	1,7	94,2
Rishton	0,5	103,9
So'x	1,9	103,1
Toshloq	1,4	95,2
O'zbekiston	0,8	95,9
Farg'ona	2,5	95,4
Dang'ara	1,2	104,8
Furqat	0,6	104,6
Yozyovon	0,5	98,3

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 46,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 96,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	338,0	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	106,7	31,6
Qo'qon	157,6	46,6
Quvasoy	1,2	0,3
Marg'ilon	24,9	7,4
Tumanlar		
Oltiariq	0,6	0,2
Qo'shtepa	0,5	0,2
Bag'dod	0,5	0,2
Buvayda	2,1	0,6
Beshariq	0,4	0,1
Quva	0,6	0,2
Uchko'prik	2,9	0,8
Rishton	0,5	0,1
So'x	3,2	1,0
Toshloq	3,1	0,9
O'zbekiston	0,6	0,2
Farg'ona	0,7	0,2
Dang'ara	10,1	3,0
Furqat	5,4	1,6
Yozyovon	16,5	4,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (157,6 mlrd. so'm), Farg'ona (106,7 mlrd. so'm) va Marg'ilon (24,9 mlrd. so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 338,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 47,1 %ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 142,5 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 168,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 195,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 2,8 m. ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 030,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,5 %ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 926,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 789 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 770 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik (69,3 m.), O'zbekiston (5,0 m.) va So'x (2,9 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 030,5	109,5
Shaharlar		
Farg'ona	293,1	118,8
Qo'qon	240,3	112,9
Quvasoy	17,6	100,9
Marg'ilon	218,6	113,6
Tumanlar		
Oltiariq	26,4	103,3
Qo'shtepa	12,0	93,9
Bag'dod	8,0	95,1
Buvayda	16,3	88,8
Beshariq	6,7	97,6
Quva	10,5	116,1
Uchko'prik	54,6	93,8
Rishton	2,0	97,5
So'x	0,8	92,8
Toshloq	62,8	102,1
O'zbekiston	12,8	91,5
Farg'ona	22,9	91,9
Dang'ara	18,2	85,8
Furqat	2,8	75,8
Yozyovon	4,2	106,0